

Surxon tongi

2026-yil
21-yanvar
(chorshanba)
3-son
(17 987)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi



“MUZRABOT DARVOZA”DA YANGILANISH

tomorqalaridan samarali foydalanilma-yotgani tanqidiy tahlil qilinib, tuman mas'ullariga aniq vazifalar belgilab berilgandi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, mazkur mahallada tub ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi.

Qisqa muddat ichida ichki yo'llar asfaltlanib, chang-to'zon va loy yo'llar o'tmishda qoldi. Elektr energiyasi va ichimlik suvi tarmoqlari yangilanib, aholi kundalik hayotida eng ko'p qiyinlangan muammolar barham topdi. Ko'chalar obodonlashtirilib, hududdan chiqindilar to'liq olib chiqildi. Eng muhimi, tomorqalardan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratilib, odamlar o'z daromadini oshirishga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamladi.

Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov mahallaga tashrif buyurib, amalga oshirilgan ishlar bilan uyida tanishdi. Mahalla nuroniylari va faollari bilan bo'lib o'tgan samimiy muloqotda bu yangilanishlar Prezidentimiz tomonidan chekka hududlar aholisi turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilayotgan doimiy e'tiborning amaliy ifodasi

ISLOHOTLAR SAMARASI

ekani alohida ta'kidlandi. E'tiborlisi shundaki, bu jarayonlarda mahalla aholisi tomoshabin bo'lib qolmadi. Aksincha, har bir xonadon egasi, har bir ko'cha faoli obodonlashtirish ishlariga o'z hissasini qo'shishga intildi. Kimdir ko'chasini tozaladi, kimdir tomorqasini tartibga keltirdi, yana kimdir umumiy ishga ko'maklashdi. Bugun mahallada odamlar ko'zidagi quvonch va mamnunlikni yashirib bo'lmaydi — kechagina muammolar bilan yuzlashib yashagan aholi bugun yaratilgan qulayliklardan mamnun.

Avvalgi sharoitlar bilan bugungi manzarani solishtirganda, “Muzrabot darvoza” mahallasida inson qadri naqadar ulug'lanayotganini yaqqol ko'rish mumkin. Bu o'zgarishlar nafaqat infratuzilmani yaxshilash, balki odamlarning ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlayotir.

“Surxon tongi”

Mahallalarda amalga oshirilayotgan “Taraqqiyot va yetakchilik maskani” dasturi hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi turmush sharoitlarini yaxshilash va inson qadri ulug'lashga qaratilgan muhim tashabbusga aylandi.

Mazkur dastur doirasida infratuzilmani yangilash, ichki yo'llarni ta'mirlash, kommunal tarmoqlarni modernizatsiya qilish hamda obodonlashtirish ishlarini izchil olib borilmoqda. Eng muhimi, bu jarayonlar mahallalarning o'zida, aholi ehtiyojlari va

takliflari asosida amalga oshirilayotgani bilan ahamiyatli bo'lib, hududlarni haqiqiy taraqqiyot va yetakchilik maskaniga aylantirishga xizmat qilmoqda. Albatta, bungacha mahallalar



o'rganildi, kerakli topshiriq va vazifalar yuklandi. Endigi bosqich esa

topshiriqlar ijrosi qanday ketayotganini ko'zdan kechirishdir.

Viloyat hokimining hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini o'rganish jarayonida Muzrabot tumanidagi “Muzrabot darvoza” mahallasida bir qator muammolar aniqlangandi. Eskirgan kommunal tarmoqlar, obodonlashtirilmagan ichki ko'chalar hamda aholi

BUGUNNING GAPI

Bugungi kunda ishsizlik muammosi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy masalalardan biri bo'lib, uni bartaraf etish davlat darajasidagi ustuvor vazifaga aylangan. Aholi sonining o'sishi, mehnat bozorida raqobatning kuchayishi va zamonaviy kasblarga bo'lgan talabning ortib borishi bandlikni ta'minlashda yangi va samarali yondashuvlarni talab etmoqda.

Ushbu yarmarka doirasida Bolgariya, Xorvatiya, Germaniya, Yaponiya, Litva, Slovakiya va boshqa davlatlardagi 1000 dan ortiq bo'sh ish o'rinlari taklif qilindi. Tadbir davomida fuqarolarga xorijda qonuniy va xavfsiz mehnat faoliyatini amalga oshirish tartibi, mehnat shartlari, huquq

bois, mehnat yarmarkasi davomida fuqarolarga mehnat migrantlarining huquqlari va xavfsizlik masalalari bo'yicha ma'lumotlar berildi. Natijalar esa bizni quvontirdi. Dastlabki saralash natijalariga ko'ra esa ikki yuzga yaqin fuqaro tavsiya etilgan xorijiy ish o'rinlariga tanlab olindi.

Bu raqamlar bunday tadbirlarga talab yuqori ekanini yana bir bor ko'rsatdi. Bu kabi tadbirlar ichki mehnat bozorida bosimni kamaytirish, yoshlarning bandligini ta'minlash va ularning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, xorijda ishlab qaytgan fuqarolar o'z tajribasi va malakasini



Davlat tomonidan ishsizlikni kamaytirish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va ayollar bandligini ta'minlash, kasb-hunar o'rgatish va qayta tayyorlash dasturlari shular jumlasidandir. Ayniqsa, ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, qisqa muddatli kasbiy kurslar va dual ta'lim tizimi yoshlarning tezroq ish topishiga xizmat qilayotir. Shu bilan birga, ishsizlikni kamaytirishda xorijda qonuniy mehnat faoliyatini tashkil etish ham samarali yo'nalishlardan

biri hisoblanadi. Mehnat migratsiyasi orqali fuqarolar nafaqat daromad manbayiga ega bo'ladi, balki xorijiy tajriba, yangi bilim va kasbiy malakalarni ham egallaydi. Davlat va xususiy bandlik agentliklari hamkorligida tashkil etilayotgan mehnat yarmarkalari bu borada muhim amaliy qadam bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, Job Bridge xususiy bandlik agentligi tashabbusi bilan viloyat hokimligi, viloyat Migratsiya agentligi hamda Yoshlar ishlari boshqarmasi hamkorligida Termiz shahridagi “Yoshlar markazi”da xorijda ishlash istagida bo'lgan fuqarolar uchun mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

MEHNAT BOZORIDA BOSIM BO'LMAYDI

va majburiyatlar to'g'risida batafsil tushuntirishlar berildi. Mehnat yarmarkasi natijalari esa ushbu tashabbuslarning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etdi. 600 nafardan ortiq fuqaro va yoshlar ishtirok etgan tadbirda 160 nafardan ortiq i tavsiya etilgan ish o'rinlariga tanlab olindi. — Eng muhim jihatlardan biri — xorijda mehnat faoliyatini qonuniy amalga oshirish masalasidir, — deydi Job Bridge xususiy bandlik agentligi rahbari Qobil Normurodov. — Shu

mamlakat rivoji yo'lida qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ishsizlikka barham berish davlat siyosati, zamonaviy ta'lim tizimi va qonuniy mehnat migratsiyasining uyg'unligi orqali samarali hal etiladi. Bu jarayonda har bir fuqaroning o'z ustida ishlashi, kasbiy bilim va malakasini oshirishi ham muhim ahamiyatga ega. Ana shunday hamkorlik va izchil islohotlar natijasida barqaror iqtisodiyot va farovon jamiyatni barpo etish mumkin bo'ladi.

S.ALLAYEVA

KENGASH KUCHLI, DEPUTAT TASHABBUSKOR BO'LSA...



Termiz shahridagi viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi majlislar zalida Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi viloyat hududiy bo'linmasi hamda Xalq deputatlari viloyat Kengashi hamkorligida “Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning haqiqiy ovozigacha aylantirish” mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

Tadbirda Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar, xususan, parlament nazoratini institutsional jihatdan kuchaytirish, mahalliy Kengashlar faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlash, deputatlik nazorati ta'sirchanligini oshirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Muhokamalar jarayonida Murojaatnomada mahalliy vakillik organlarining davlat boshqaruvdagi o'rnini mustahkamlash, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, hokim va Kengash raisi vakolatlarini ajratish islohotining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu islohot mahalliy Kengashlarning nazorat vakolatlarini kengaytirish hamda deputatlarining ijro hokimiyati faoliyatini ustidan samarali nazorat o'rnatishida muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi. — Bu yilgi Murojaatnomada ham eng muhim va hayotiy masalalarga alohida urg'u berildi, — deydi Xalq deputatlari viloyat Kengashi raisi A.Choriyev. — Xususan, olib borilayotgan islohotlar jamiyatning har bir a'zosi tomonidan kundalik

hayotda bevosita sezilishi lozimligi ta'kidlandi. Davlat rahbari joylarda, ayniqsa, mahallalarda infratuzilmani tubdan yaxshilash masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Yo'llarning sozligi, sifati ichimlik suvi ta'minoti, obod va qulay yashash muhiti aynan mahallalarda ta'minlangandagina fuqarolar davlat organlari faoliyatiga real baho bera olishi qayd etildi. Xabarimiz bor, konstitut-siyaviy islohotlar doirasida viloyat hokimlari va mahalliy kengashlar raislari lavozimlarini bir-biridan ajratilgan edi. Ushbu tizimning 2026-yil 1-yanvardan barcha tuman va shaharda ham yo'lga qo'yilganligi islohotlarimizning yorqin samarasidan darak beradi. Bundan buyon deputat so'rovlarini ijrosi har chorakda tahlil qilinib, sustkashlikka yo'l qo'yilgan holatlar bo'yicha prokuraturaga taqdimnoma kiritilishi belgilanganligi islohotlar samaradorligini ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshiradi. Shuningdek, tadbirda Senat va mahalliy Kengashlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini ta'minlash, siyosiy partiyalar

fraksiyalarining mahalliy qarorlar sifatini oshirishdagi roli, deputatlarining saylovchilar bilan ishlash madaniyatini yuksaltirish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Davra suhbatini yakunida Prezident Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni hududiy darajada samarali amalga oshirish, mahalliy vakillik organlari faoliyatida tashabbuskorlik va mas'uliyatni oshirish, parlament va deputatlik nazorati mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiylar bildirildi. Tadbirda Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi raisi A.Choriyev, Oliy Majlis Senati a'zosi D.Suvonova, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi viloyat hududiy bo'linmasi rahbari Z.Alimardonova, Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi raisi D.Normurodovlar o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Davra suhbatida xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari, siyosiy partiyalarning viloyat va tuman Kengashlari xodimlari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

X. TOG'AYMURODOV

MULOHAZA

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida davlat rahbarining parlament va xalqqa murojaat qilishi strategik hujjat hisoblanadi. U bir vaqtning o'zida hisobot, dastur, prognoz va mafkuraviy yo'naltiruvchi vazifalarni bajaradi.

HISOBOTDAN AMALIY NATIJAGA, REJALARDAN HAYOTGA...

Murojaatnoma — davlatning o'z fuqarolari oldida ochiq hisobdorligini ta'minlaydigan, strategik maqsadlar va amaliy vazifalar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beruvchi muhim siyosiy instrumentdir. U orqali mamlakat yetakchisi nafaqat yil natijalarini sarhisob qiladi, balki kelgusi bosqichda jamiyat oldida turgan asosiy vazifalarni konseptual jihatdan belgilab beradi.

Prezidentimiz 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnoma yo'lladi. Unda: "Biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rgandik", deya aniq va ochiq ifodalaydi. Bu fikr davlat boshqaruvida pragmatik yondashuv, institutsional samaradorlik va natijadorlikka asoslangan siyosat tamoyillari ustuvor bo'lib borayotganini anglatadi. Ya'ni, islohotlar endilikda g'oya sifatida emas, balki har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson hayotida seziladigan o'zgarish sifatida baholanmoqda. Bu natijalar shahar va qishloqlar qiyofasining o'zgarishi, infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi, raqamli xizmatlar rivoji, yangi ish o'rinlari va ijtimoiy himoya tizimida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mazkur Murojaatnomaning muhim konseptual jihatlaridan biri — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining global kontekstda tahlil qilinishidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, O'zbekiston iqtisodiyoti ishonchli va barqaror o'sishda davom etdi. Bu holat o'lkaming makroiqtisodiy barqarorlik siyosati, diversifikatsiyalangan iqtisodiy model hamda ochiq tashqi iqtisodiy aloqalarga asoslangan strategiyasi to'g'ri yo'nalishda ekanini ko'rsatadi.

Murojaatnomada keltirilgan iqtisodiy raqamlar yurtimiz taraqqiyotida sifat jihatdan yangi bosqich boshlanganini ko'rsatadi. Xususan, Prezidentimiz quyidagicha ta'kidlaydi: "Bu yil tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard AQSH dollaridan oshdi". Bu raqam nafaqat iqtisodiy o'sish, balki davlatning strategik rejalashtirish qobiliyati oshganini ham anglatadi. Chunki, murojaatda ta'kidlanganidek, bor-yo'g'i to'qqiz yil oldin yalpi ichki mahsulot hajmini 100 milliard AQSH dollariga yetkazish katta marra sifatida baholangan edi. Shuningdek, eksport hajmi 33,4 milliard AQSH dollariga yetgan bo'lsa, oltin-valyuta zaxiralari 60 milliard AQSH dollaridan oshdi hamda xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotda ichki va tashqi ishonch mustahkamlanganini bildiradi.

Prezidentimiz tomonidan 2026-yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilindi va jinoyatchilikka qarshi kurash, xotin-qizlar va bolalar zo'raonligiga chek qo'yish, iqtisodiyotni rivojlantirish kabi dolzarb masalalar ko'tarildi. 2026-yil aynan mahallani rivojlantirishga bag'ishlangani sababli, bu borada yangi dasturlar va mahalla raislariga ko'proq vakolat berish kabi choralar ko'riladi. Oilaviy zo'raonlikning oldini olish, xotin-qizlar va bolalarning huquqlarini himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, bozor munosabatlarini mustahkamlash va ijtimoiy himoyani kuchaytirish rejalashtirilgan.

Ulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Murojaatnomada 2026-yil uchun aniq ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Bu ustuvor yo'nalishlar davlat siyosatida tizimli va uzviy yondashuv mavjudligini ko'rsatadi.

Bakir YO'LDASHEV, Xalq deputatlari Jarqo'rg'on tuman Kengashi deputati



TASHABBUSI ILDAM



KELAJAK OVOZI Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida yoshlarning, ayniqsa, qizlarning zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallashi jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda, O'zbekistonda qizlarni IT sohasi, innovatsion tafakkur va ilmiy-texnik izlanishlarga keng jalb etishga qaratilgan tanlov va loyihalar izchil amalga oshirilmoqda. Ana shunday muhim tashabbuslardan biri — "Raqamli avlod qizlari" tanlovidir. Termiz shahridagi 26-sonli umumta'lim maktabida "Raqamli avlod qizlari" tanlovining viloyat bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi. Ushbu tanlov yosh qizlarning raqamli texnologiyalar, innovatsiya

RAQAMLI MUHITDA EHTIYOTKORLIK MUHIM

Shu bilan birga, raqamli muhitda xavf-xatarlar ko'lami kengayib, kibernetika, kibernetika ta'minlash masalasi davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Kibernetika — axborot tizimlari, elektron resurslar, telekommunikatsiya tarmoqlari hamda shaxsiy va xizmatga oid ma'lumotlarga noqonuniy kirish, buzish, o'g'rilash, o'zgartirish yoki yo'q qilishga qaratilgan tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va

texnik chora-tadbirlar majmuasidir. Kibernetika ta'minlash faqat texnik masala bo'lib qolmasdan, axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, jamiyatda ishonchli raqamli muhitni barpo etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda fishing usuli orqali shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarni qo'lga kiritish, zararli dasturiy ta'minotlar orqali axborot tizimlariga noqonuniy aralashuv, internet orqali

Hozirgi globallashuv va raqamlashuv sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari barcha sohalarga chuqur kirib bormoqda. Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, moliya tizimi, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda fuqarolarning kundalik hayoti internet va elektron xizmatlar bilan uzviy bog'liq holga keldi.

firibgarlik va aldov yo'li bilan fuqarolar mablag'larini o'zlashtirish hamda ijtimoiy tarmoqlarda soxta akkauntlar orqali ishonchni suiiste'mol qilish kabi kibernetika holatlari keng tarqalgan. Ushbu tahdidlar nafaqat alohida shaxslarga, balki davlat va jamiyat manfaatlariga ham jiddiy zarar

yetkazishi mumkin. Kibernetika ta'minlashda davlat organlari bilan bir qatorda har bir fuqaroning ongli ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Fuqarolar shaxsiy va bank ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga oshkor qilmasliklari, shubhali havolalar, xabarlar va qo'ng'iroqlarga ishonmasliklari,

axborot tizimlaridan foydalanishda qonunchilik talablariga amal qilgan holda litsenziyalangan va ishonchli dasturiy ta'minotlardan foydalanishlari, raqamli muhitda mas'uliyatli va ehtiyotkor bo'lishlari lozim. Kibernetika — bugungi kunda milliy



xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va fuqarolar tinchligini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan samarali va xavfsiz foydalanish uchun kibernetika nisbatan hushyorlikni oshirish, huquqiy madaniyatni shakllantirish

va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Har bir fuqaroning ongli munosabati jamiyat xavfsizligining mustahkam kafolatidir. B.ABDUALIMOV, Surxondaryo viloyati IIB ATSJQKB xodimi

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanib, mamlakatimizning tarixiy va diqqatga sazovor maskanlariga bo'lgan qiziqish ortmoqda.

Ayniqsa, ichki turizmni rag'batlantirish orqali nafaqat hududlar iqtisodiyoti, balki yoshlar tarbiyasi va madaniy merosga hurmatni oshirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, 2022-yil 1-iyundan boshlab "O'zbe-

kiston bo'ylab sayohat qil" dasturi doirasida yoshlarni mamlakatimizning tarixini va diqqatga sazovor joylariga sayohat qilishga keng jalb qilish boshlandi.

belgilash to'g'risida"gi qarori asosida viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari o'quvchi-yoshlarning xavfsizligini ta'minlab,

obyektlarining yo'nalish xaritasi va xavfsizlik talablariga oid bukletlar



bilan ta'minlanib, kerakli ma'lumotlar berilmoqda. Ushbu sayohatlar yoshlar uchun nafaqat tarixiy bilimlarni oshirish, balki bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, turizm sohasini yaqindan o'rganish imkoniyatini yaratadi. Akbar MAVLYANOV, viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi jamoat tartibini saqlash guruhi katta inspektori, mayor

YOSHLAR SAFARDA...

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 13-avgustdagi "Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash bo'linmalarini tomonidan shartnoma asosida pulli xizmatlar ko'rsatish tartibini

ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga zarur sharoit yaratmoqda. Sayohatlar davomida yoshlar viloyatimizdagi sayyohlik namoyishi

bilan ta'minlanib, kerakli ma'lumotlar berilmoqda. Ushbu sayohatlar yoshlar uchun nafaqat tarixiy bilimlarni oshirish, balki bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, turizm sohasini yaqindan o'rganish



"MAJBURLAMAY, QIZIQTIRAMIZ..."

Ayniqsa, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan innovatsiyali o'yinlar mashg'ulotlarning qiziqarli, mazmunli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Innovatsion o'yinlar — bu bolalarning mustaqil fikrlashini, ijodkorligini, muloqot ko'nikmalarini va bilishga bo'lgan qiziqishini rivojlantiruvchi zamonaviy o'yinlar hisoblanadi. Bunday o'yinlar orqali bolalar bilimni majburan emas, balki qiziqish va faol ishtirok orqali o'zlashtiradilar. Mashg'ulot jarayonida innovatsion o'yinlardan foydalanish bolalarning nutqini rivojlantiradi, diqqat va xotirasini mustahkamlaydi, mayda va yirik motorikasini rivojlantiradi, ijtimoiylashuviga yordam beradi hamda jamoada ishlash va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, innovatsion o'yinlar bolalarda tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Masalan, mantiqiy o'yinlar, rolli o'yinlar, interaktiv va didaktik o'yinlar orqali bolalar real hayotga mos ko'nikmalarni egallaydilar. Yangi innovatsiyali o'yinlar tarbiyachi faoliyatini ham yengillashtiradi. Tarbiyachi mashg'ulot davomida rahbar va yo'naltiruvchi rolini bajaradi, bolalar esa faol ishtirokchiga aylanadi. Bu esa ta'lim sifatini oshiradi va mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. MTTlarida yangi innovatsiyali o'yinlardan foydalanish zamonaviy ta'lim talabi bo'lib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bunday o'yinlar orqali bolalarda bilim olishga bo'lgan qiziqish ortadi, mashg'ulotlar esa quvonch va ijobiy muhitda o'tadi. Dilovar XASANOVA, Termiz shahar 11-DMTT direktor o'rinbosari

MUTAXASSIS MINBARI

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va yangi o'yin texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"XALQ BILAN ARMIYA — BIR TAN-U BIR JON"



Termiz tumanidagi Gulbahor aholi punktida joylashgan DXX Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qismda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 34 yilligi va 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan sport musobaqasi bo'lib o'tdi. Tadbir "Xalq bilan armiya — bir tan-u bir jon" shiori ostida o'tkazilib, harbiy xizmatchilar va tumandagi

BIR TAN-U BIR JON

18-sonli umumta'lim maktabi o'quvchilari ishtirok etdi. Musobaqa davomida yoshlar sport orqali jismoniy tayyorgarlikni mustahkamlash bilan birga, armiyaga bo'lgan hurmat va Vatan himoyasiga sadoqat ruhini his qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Tadbir yakunida g'olib jamoa va ishtirokchilari esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Bunday tadbirlar yoshlar hayotida nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllantirish, balki vatanparvarlik, jamoaviy ruh va mas'uliyat hissini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

O. ISMOILOV, kapitan

BOLALARNING SAVODI CHIQDI

Termiz shahridagi 20-sonli umumta'lim maktabining 1-"D" sinf o'quvchilari ishtirokida "Savodxonlik bayrami" ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbir o'g'il-qizlar hayotidagi muhim bosqich — o'qish va yozishni o'rganish yo'lidagi ilk yutuqlarni nishonlashga bag'ishlandi. Tadbir davomida

bolalarning sahna ko'rinishlari, she'r va qo'shiqlari, quvnoq chiqishlari ularning iqtidor va mahoratini yaqqol namoyon etdi. Har bir chiqish ularning bilimiga bo'lgan ishtiyoqi,



sahna madaniyati va o'ziga bo'lgan ishonchi shakllanib borayotganidan dalolat berdi. Shubhasiz, bugun ilk harflarni tanigan bu bolajonlar ertaga Vatan ravnaqiga

hissa qo'shadigan bilimli, salohiyatli insonlar bo'lib voyaga yetadilar. Shaxnoza KENJAYEVA, o'qituvchi

Tarixiy manbalarda ham Termiz ko'chalari, bozorlari va masjidlari obod bo'lib, sovun, yelim, qayiq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

617/1220-yilda mo'g'ullar shaharga ulkan bosqin uyushtirib, vayronkorlik olib kelishgan bo'lsa ham, 736/1336-yili Termizga kelgan sayyoh va olim Ibn Battuta uning obod va ko'rkamligini qayd etgan. Uning aytishicha, bu yerda bog'-u rog'lar mo'l-ko'l, behisi esa eng yuksak darajada shirin, go'sht va sut ko'p. U o'zi guvoh bo'lgan shahar Amudaryodan uch kilometrcha uzoqda bo'lganini yozgan. Ya'ni, ma'lumki, eski shahar Amudaryo qirg'oqlarida bo'lgan. Demak, Termiz aholisi bosqindan so'ng tez orada o'z diyorlarini qaytadan qurib, obod maskanga aylantirib olishgan.

Oxirgi yillarda O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda va bu borada ulkan ishlarni amalga oshirmoqda. Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning bu boradagi imkoniyati Markaziy Osiyo shaharlari orasida yuksak o'rinda turadi. Chunki bu yerda Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa ilm-u ma'rifat o'choqlari joylashgan. Bu

Termiz 2500 yillik tarixga ega qadimiy shahar. U – Amudaryo bo'yidagi strategik nuqta hisoblanadi. Shaharga hijriy birinchi, milodiy VII asr oxirida islom kirib keldi va undan chiqqan olimlar Termizning shuhratini butun islom olamiga yoyishgan.



joylarda qadimiy masjid-u madrasalar, tarixiy qal'alar va devorlar va boshqa osori atiqalar ko'p. Bu masalalariga ilmiy yondashuvni yo'lga qo'yish uchun esa O'zbekiston hukumati bir qator ilmiy markazlarni tashkil etdi. Ulardan eng muhimlaridan biri esa Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazidir.

O'zbekistonga ko'p bora kelganman, uning tarixiy ahamiyat yuksak ekanligi menga ma'lum bo'lsa-da, ammo Termizga kelishga muvaffaq bo'lmagan edim. Bu ko'hna shaharni ziyorat qilishni esa uzoq vaqtdan beri juda xohlardim. Oltinchi bor kelishimda esa, boradigan joylarimning eng avvalgi manzili sifatida Termizni belgiladim va bu yerda

bir necha kunlar bo'lib, ushbu sehrii shaharning islomiy osori atiqalari bilan tanishishni maqsad qildim.

Toshkentdan Termizga uchib kelish jarayonida qorlar bilan qoplangan tog'-u cho'qqilar va go'zal tabiat manzaralari menda katta taassurot qoldirdi. Termiz dala-yu bog'lar bilan o'ralgan bo'lib, ajib go'zallik ichradir. Bizni aeroportda Imom Termiziy markazining ikki xodimi kutib oldi va shahar haqidagi ma'lumotlar olishimizni nihoyatda yengillatdi.

Mezbonlar bizni Jome' masjidi to'g'risidagi — shahardagi eng yaxshi ovqatlanish maskanlaridan biriga olib borishdi. U yerda juda mazali tushlik qilgach, Imom Termiziy markaziga

kirdik va markazda olib borilayotgan tadqiqotlar bilan tanishdik, qadim arabiy va forsiy kitoblari tarjimalari amalga oshirilayotganiga guvoh bo'ldik. Markaz xodimlarining xabar berishicha, ular Termizdan yetishib chiqqan olim va tarixiy shaxslar borasida juda chuqur ilmiy izlanishlar olib borishayotgan ekan. Ma'lum bo'lishicha, ular 212 nafar Termiziy olimlari haqida ma'lumot to'plashgan ekan. Shaharga qilgan tashrifim qisqa bo'lsa-da, Imom Termiziy markazi xodimlari bu sayohatimni juda mazmunli o'tkazishimga va bu yer haqida eng muhim ma'lumotlarga ega

bo'lishimga yordam berishdi. Qolaversa, ular tarix va arab tilini juda yaxshi bilishar ekan

qishlog'idagi Jarqo'rg'on minorasiga bordik. U Termiz shahridan qirq kilometrcha uzoqlikda. U Termiz obidalarining dur-u gavharidir. Zero, minorra asrlar o'tsa-da, o'z holicha saqlanib turibdi. Minorra


borligiga guvoh bo'ldim. Zero, bu shaharning qadimdan tarixdagi yuksak o'rni bo'lganini namoyon etadi.

Men Termizga sayohatim davomida esdaliklarimni doimo yozib, olib yurdim va ular ushbu maqolaga asos bo'ldi. Shahar esa men o'ylaganimdan ko'ra chiroyliroq va hayratomuz ekan. Shahar bilan tanishish jarayonimda ko'plab ibrat-u saboqlar oldim. Masalan, bildimki, tadqiqotchi o'zi tarixi va madaniyati haqida yozmoqchi bo'lgan joylariga borib, ularni o'z ko'zi bilan ko'rishi kerak ekan. Shunda tarixchilarning qalamlari tasvirlashga

o'z zavqi bilan guvoh bo'ladi. Zero, eshitish va ko'rish hech qachon teng bo'lmaydi. Qolaversa, qadimgi shaharlarning o'z viqori va haybati bo'ladi, unga keluvchilarga bu alohida ta'sirini o'tkazadi, agarki oradan qancha asrlar va voqea-hodisalar kechgan bo'lsa ham!

Nodir VASIYR,
olim, Quvayt
("Al-Bayon" jurnali,
2025-yil dekabr soni)
Imom Termiziy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi katta
ilmiy xodimi (PhD)
**Jo'rabek
CHO'TMATOV** tarjimai

TERMIZGA YO'L...



va biz ular bilan Termizning diqqatga sazovor joylarini aylandik.

Birinchi kun, dastlab, tasavvuf ilmining ulug' qutbi bo'lgan Hakim Termiziy ziyoratgohiga bordik. Uning qurilish tarixi bir necha bosqichda kechgan. Jumladan, o'n beshinchi asrda u hozirgi ko'rinishga yaqinlashgan. Qabr ustiga arabiy naqshlar bilan bezatilgan go'zal oq marmartosh qo'yilgan. So'ng shahardan bir soatlik masofada Imom Termiziy qabrinin ziyorat qildi. Bu olim Termiziy olimlari orasida alohida o'rin tutishini alohida ta'kidlash lozim.

Ikkinchi kun Jarqo'rg'onning Minor

503/1109-yilda Muhammad ibn Ali Saraxsiy tomonidan qurilgan va bu minoraning o'zida qayd etilgan. U go'zal ko'fiy naqshlar bilan bezatilgan. Minorra balandligi 21 metrga yetadi. Uning ustiga chiqib, atrofdagi ekinzorlar hamda tarixiy va zamonaviy binolarga boqish maroqlidir. Minoraning yonboshida tarixiy masjid bo'lgan, ammo bugungi kunda undan hech narsa qolmagan.

Uchinchi kuni esa shahar ko'chalarini aylandik. Yo'l-yo'lakay Termiz arxeologik muzeyiga duch keldik, u yerga kirgach, Termizning nafaqat islom, balki islomdan oldingi qadim madaniyatiga oid ko'plab osori atiqalar

bema'nigarchilikni tuzatishning imkoni yo'q?!

Balki mening mulohazalarimdan ayb topishga kirishib ketgandirsiz. Til bilsa nima bo'пти, shunga ota go'ri qozixonami? Qancha ko'p til bilsa yaxshi-ku, deyotgandirsiz? Yashang, bu haqda gap-so'z bo'lishi mumkin emas. Katta bo'lib, aqlini taniganda o'nta til o'rgansa ham bo'ladi-ku! Ammo bir narsani unutmang kerak, bolaga insoniy tuyg'ular, insoniy fazilatlar ona suti bilan kirgan bo'lsa, vatanni sevish, millatini ardoqlash va u uchun beg'araz xizmat qilish kabi xislatlar ona tili bilan kiradi. Bugun bolasini tarbiyalashga olib kelganlar rus yoki ingliz, nemis emas, aynan o'zbek onalar edi.

Mudiramiz esa menga: "Tashvishlanmang, sizga kichkinalari nasib qilgan, ularga unchalik shart emas, men sizni bilasiz deb o'ylagan ekanman-da. Hali o'rganib ketarsiz..." dedi. Endi nima qilishga boshim qotgan. Awaaliga oz-moz o'rganib tursam, balki keyinchalik tushunib borarman, har holda, yana bir tilni o'rganish zarur qilmaydi. Lekin buni istamasang-da bajarish juda yomon, men sizga aytсам... Uyg'a kelsam xo'jaynim telefonda kulgiil bir video ko'rayotgan ekan. Yaxshilab quloq solsam, aslida qayg'uli video edi, buni faqat men tushungan ko'rinaman. Chunki unda bog'cha tarbiyalovchisi bolalarga rus tilidan sanashni o'rgatayotgan edi.

— Adiiin... Dvaaa... Chitiri... Sheyest... Voosem...

Xo'jaynim xandon otib kular, men esa yig'lardim, ishonim, chindan ko'zim yoshlandi. Xo'riligim keldi. Nimaga bilasizmi, u birgina o'sha bog'cha opa, men yoki biz kabi rus tilini bilmas tarbiyalovchilarning emas, o'zi bilmagan holda butun bir millatning ustidan kulayotgan edi. Kechiringlar erimni, buni ochiqdan ochiq gapirayotgan meni ham. Balki bu uchun qonunda jazo ham bordir, buni bilmayman. Ammo men bir narsani aniq bilaman, tilimni, millatimni sevmaganimda, bugun buncha yig'lamas edim...

Manzura ABDUHAKIMOVA

FAXR HAYOTI BEBAHO MAKTABDIR

Islom Karimov — O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti, mustaqil davlatimiz asoschisi va yangi davlatchilik poydevorini yaratgan buyuk siyosiy arboddir.

Birinchi prezident tavalludining 88 yilligi yurtimizda chuqur hurmat va ehtirom bilan nishonlanib, xalqimiz qalbida unutilmas xotiralar va yuksak minnatdorlik tuyg'ularini uyg'otadi.

I. Karimov o'z faoliyatini eng murakkab va mas'uliyatli davrda boshladi. Mustaqillikning ilk yillarida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish uning oldidagi eng muhim vazifa edi. Davlat arbobi tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning "o'zbek modeli" bosqichma-bosqich islohotlar olib borish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va milliy manfaatlarini ustuvor qo'yish tamoyillariga asoslandi.

Birinchi Prezident rahnamoligida O'zbekiston xalqaro maydonda mustaqil va teng huquqli davlat sifatida tan olindi. Mamlakatimizda Konstitutsiya qabul qilindi, davlat ramzlari tasdiqlandi, milliy armiyamiz va huquqiy demokratik davlat asoslari yaratildi. Tinchlik va barqarorlikni saqlash, millatlararo totuvlikni mustahkamlash Islom Karimov siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Shuningdek, u ma'naviyat va ma'rifat masalasiga alohida e'tibor qaratib, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g'urur va yuksak axloq ruhida tarbiyalashni muhim vazifa deb bildi. Birinchi Prezidentning boy siyosiy va ma'naviy merosi bugungi va kelajak avlodlar uchun bebaho maktabdir. Uning Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida qilgan fidokorona mehnati tarix sahifalarida oltin harflar bilan bitilgan.

Islom Karimovning porloq xotirasi xalqimiz qalbida abadiy yashaydi. Uning orzu-intilishlari va ezgu g'oyalari mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida bardavom bo'lib qolaveradi.

Ibodulla YAXSHILIQOV,
DXX Chegara qo'shinlari
harbiy xizmatchisi

Bu yerda ham hammasi yaxshi edi, toki ish izlashni boshlagunimcha. Ishni xo'jaynimning boshini og'ritishdan boshladim, ishlamasam bo'lmaydi, uyda zerikyapman, to'rt devor meni g'ajab tashlayapti, dedim. Bezor bo'lgan u kishim bir kun o'tirib men bilan internetdan ish izladilar. Asosan, bolalar bog'chasidan tarbiyachi ish o'rni izladik. Xoh ishonim, xoh ishonmang, 90 foiz e'lonlar faqat rus tiliga ixtisoslashgan bog'chalardan qoldirilgan. Bu ne savdo!

Boshimni changallab qoldim. O'zbekchasi ham bor ekan-ku, o'shalariga qo'ng'iroq qilaylik, deb turib oldim. Erim esa telefonni ko'zimga yaqinroq tutib, ko'rmayapsanmi manzili qayerdaligini, qanot chiqarib

uchib bormoqchimisam, dedi. Ne ko'z bilan ko'rayki, jonimga ora kirgan bu e'lonlarning ostiga yozilgan manzila kelib "pishdim". Asabim dosh berolmay qoldi. Nima bo'lsa bo'ldi, telefon qiling o'shanga, balki o'rischa bilmasam ham ishga olishar, yangilishishgandir, dedim talimovsirab.

— Bu rus bolalar boradigan bog'chami?
— Yo'q, o'zbek bolalar uchun.
— O'zbekchani o'zi yetarli bo'lmamikan, opajon?

— Bo'ladi, faqat yordamchi sifatida ishlaydi, bolalarni ovqatlantirish, kiyintirish, tozalash ishlari degandek... Shunda ham ularga ruscha murojaat qilish kerak.

Yo'q-yo'q dedim, boshimni ilkis ko'tarib. O'sha kun, o'sha nuqtada bu mavzuni yopdik. Erimni boshqa bezovta qilmadim. Ancha vaqtgacha meni tushkun kayfiyat tark etmay yurdi. Bu orada bir-ikki

yosh bolalarga uyda qaraydigan bo'ldim. Mehnat haqimni berishdi. Bu mening birinchi ishlab topgan pullarim edi. Na xursandligim, na xafaligim bilinardi. O'z yurtimga o'zingning emas, o'zganing tilini bilmaganing uchun rasman ishlay olmasang, to'g'risi, yomonam alam qilar ekan. Boz ustiga, o'z vatanningda ijarada tursang... Shuning o'zi yetmasmidi-yey?

Kunlar o'tdi, oylar o'tdi. Yuragimdagi meni ishga olmaganlarga bo'lgan ginalarim tarqab ham ketdi. Va xuddi

suyunchi olib chiqdim, men ishlaydigan bog'chaning rasmlarini tashladim. Va kechga yaqin suratlarini birma-bir ko'rib chiqayotсам, avval o'zim e'tibor bermagan eshikdagi yozuvga ko'zim tushib, yuragim shuv etdi: "Добро пожаловать!" Bu qanday hazil?! Yo analashmovchilikmikan?

Ertasi kuni onalar jaji farzandlarini ko'tarib kela boshlashdi. Sharoitlar, jihozlar, o'yinchoqlarni ko'zdan kechirishdi. Keyin bitta-ikkita gaplari



KECHINMA

Mutaxassisligim — maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi. Maktabda 10 yil rus tili o'qitilgan, Xudo haqqi, "Mama", "papa", "здравствуйте" dan boshqa narsani tushunmayman. Shukrki, qishlog'imdada, universitetda buning ortidan hecham pand yemadim. O'tgan yili shaharga ko'chib keldik.

DODIMNI KIMGA AYTAY?

shu kunlarda yonginamizdagi binoda yap-yangi bog'cha ochiladigan bo'ldi. Surishtira-surishtira, mudirasi bilan gaplashdim, ishga olishga ko'ndirdim ham, faqat kichikroq yoshdagi bolalar guruhiga qarovchi sifatida. Ish degani mana bundoq bo'libdi! Yuribsiz-da siz ham, xo'jayni!

Rasman ochilguncha egalari ko'maklashib turdim, supur-sidir, yugur-yugur, bezat-chizdir qilib ham charchamadim, xursand edim, chunki endi mening chindan ham ishim bor! Birorta qarindosh, sinfdosh, kursdoshlarim qolmadi, hammadan

qulog'imga chalinaverdi:

— O'zi tarbiyalovchilari ruschani bilisharmikan?
— Menga qarang, opa, bolam ruschani yaxshi o'rganishi kerak!
— Nechi yosh o'zi?
— Birdan oshdi...
— Gapiradimi?
— Endi-da...

Ustimgan kimdir sovuq suv quyib yuborganday bo'ldi, qo'llarim shalvirab qoldi. Hali gapirishni bilmaydigan bolaya? Axir, o'zi qistab turgani yo'q-ku menga ruscha o'rgatinglar deb! Nega bizda ota-onalar farzandlarining taqdirini tug'ilmasidanoq hal qilishadi? Nonni nanna, suvni tuv deydingiz, ona so'zini aytolmaydigan bolani kim majburlayapti? Bu mantiqsizlikning boshi qayerda?

Keyin bilsam, ota-onalarning aksariyati bolam ruscha o'rgansa, fikrlash doirasini kengayadi, o'zlashitirishi yaxshilanadi, chunki rus bog'chalarda sharoit yaxshi, hammasi talab darajasida, deb o'ylar ekan. Qachondan boshlab jamiyatning til bilish, ilm o'rganish darajasi, butun boshli ta'lim tizimini rejali ish yuritishi qayovdagi millatni mensimaydigan chala o'zbek ota-onalarning talabi bilan shakllanadigan bo'ldi? Yo unaqa emasmi? Nahotki, mana shu

"ZAHARLANISHDAN SAQLANING"

KUN MAVZUSI

Havo haroratining pasayishi bilan fuqarolar turli xildagi isitish moslamalaridan foydalanishi boshlaydilar.

Sir emaski, oddiygina ko'ringan beparvolik ham yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in va boshqa ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha Favqulodda vaziyatlar vazirligining yong'in nazorati va profilaktikasi inspektorlari mutasaddi tashkilotlar xodimlari bilan hamkorlikda mahalla, o'quv va davolash muassasalari, oliyog'ho yotoqxonalar hamda sanoat korxonalarida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarni olib bormoqdalar.

Olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, ayrim xonadon egalari boshqarilgan oqibatida is gazidan zaharlanish, tan jarohati olishlari va halok bo'lish holatlari kuzatilmoqda.

Aziz vohadoshlar, gaz va elektr asboblarini ishlatish qoidalariga qat'iy rioya qiling!
Asliddin RUSTAMOV,
Termiz tuman FVB favqulodda vaziyatlar profilaktikasi katta inspektori,
katta leytenant

"TERMIZ TEMIR YO'L SUV TA'MINOTI" SHO'BA KORXONASI ICHIMLIK SUVIDAN FOYDALANUVCHILAR DIQQATIGA!

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2026-yil 15-yanvardagi "Termiz temir yo'l suv ta'minoti" sho'ba korxonasi ichimlik suvi va oqava suv xizmatlari narxlarini (tariflarini) belgilash to'g'risida"gi VII-14-7-8-0-k/26-sonli qarori bilan 2026-yil 1-fevraldan boshlab, ichimlik suvining narxi quyidagicha etib belgilandi:

1. Aholi uchun 1m³ – 2300 so'm, Qo'shilgan qiymat solig'isiz;
2. Korxonaga va byudjet tashkilotlari uchun 1 m³ – 3500 so'm, Qo'shilgan qiymat solig'isiz.

"Termiz temir yo'l suv ta'minoti" sho'ba korxonasi

YAXSHILAR YODI

IKKI DARYO OQIB O'TDI

Ijod — bu inson ruhining eng yuksak parvozi, tafakkur va tuyg'ularning uyg'un kuyidir. U yurakdagi kechinmalarni so'zga, fikrni esa ma'noga aylantiruvchi sehirli jarayon. Ijodkor qalbi bilan ko'radi, so'zi bilan his ettiradi, asari bilan esa jamiyatni o'zgartira oladi. Har bir davrning ruhi, xalqning orzusi va insoniyatning umidi — ijodda aks etadi.

Shu bois ijod — nafaqat san'at, balki hayotning o'zi, insonni inson qiluvchi ilohiy qudratdir. Ana shunday asl ijodkorlar esa hech qachon o'lmaydi. Ijodi, san'ati bilan qalblarda mangu yashaydi.

YURAGI, QALBI ALP EDI

Besh kunlik dunyoning besh kunlik mehmonlaridan ikki ijodkor aka-uka Chorsha baxshi va Shafoat Rahmatullayevlar ham ayni ta'rifi bizga mos keladigan qahramonlardir. Chorsha baxshi toki umrining oxiriga qadar Alpomidan, elning afsonaviy botirlaridan doston, termalar aytib yashadi. Garchand, o'zi alpomat bo'lmasada, yuragi, qalbi alp edi, bitganlari ham alp edi. Chorsha baxshi asl o'zini mol-dunyodan ustun qo'ydi. Huvaydoning mashhur bayti bor: "Tepib o't dunyo molini, hamma ranj-u falokatdur". Xuddi shunday Chorsha baxshi dunyo molini tepib o'tdi desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Baxshining hayotlik vaqtida O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi a'zosi Mahmud Bulfayz bilan Chorshanbi baxshi yashayotgan uyga bordik. Bizni ko'rib, shu qadar suyundiki, baxshining bu suyungani safarga ketgan otasini ilhaq va muntazir kutayotgan olti-ychli yashar bolaning sog'inchli holatiga juda-juda o'xshardi. Biz shundan angladikki, Chorsha baxshi hamisha kimnidir sog'inch bilan kutib yasharkan. Avval go'dak, oxir go'dak deganlari ham shu Chorsha baxshi edi.

"YOZGANLARIM TILDA BO'LSA — BIR DAVLAT"

Qayerga borsangiz ham suhbatdoshingizga e'tibor berasiz-da. O'shanda yetmishga kirayotgan Chorsha baxshining qaddi bukchaygan edi. Bizga qoqsuyak qo'llari bilan shu qadar ajoyib kuylar chalib berdiki, asti qo'yaverasiz. Do'mbiraning ohanglariga chayqalib, o'zi ham bori dunyoni bir zum unutgandek bo'ldi. Chorsha baxshi daryo baxshi edi. Bu daryodan qancha-qancha baxshilar bemalol bahramand bo'lar edilar. Shu borganimizda guruh orasida bildikki, Chorsha baxshidan ayrim baxshilar yangi terma, dostonlardan namunalari olib ketisharkan. Baxshilar bor (ba'zan) to'daning ichida bir terma yoki dostondan amallab aytib o'tkazadi. Bundaylarning tamomila

aksi bo'lgan Chorsha baxshi esa biror to'yda tong ottirmay qaytmadi, izzatga yetmasalar, qilvga ta'na ham qilvga emas.

— Yaqinda falon baxshi kelib qo'lyozmalarimdan yozib olib ketdi, — dedi gap orasida Chorsha baxshi taniqli baxshilardan birining nomini tilga olib. — Bunisi qanday bo'ladi? — so'radik baxshidan. — Yozilgan narsalar sizniki bo'lsa-yu, boshqalar egalik qiladimi? Yoki qalam haqini berishadimi?.. — Go'rdami, — dedi tishlari allaqachon tark etib ketgan og'zini ochib samimiy kularkan baxshi — odati shu — qo'lyozma-yu xotiralaramni yozib oladi. Ukalar, mening yozganlarim boshqa baxshilarning tilida bo'lsa hamki, el ichida aylantirganing o'zi katta bir davlat.

Shunday, Chorsha baxshi daryo baxshi edi. Bu daryodan istagan baxshi-shoir xohlaganicha suv ichib ketaber edi. Yana bir baxshining uyiga borganimizda O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi a'zosi Tojiddin Razzoq shunday taklif qilgandi:

Taqsiqlar, Chorsha baxshi haqida oltmish-yetmish betlik risola yozib tashlang, baxshi bobo qaribdi. Fursatni qo'ldan boy bermang. Esingizdan chiqmasin, taqsiq, Chorsha baxshini siz bilan bizga bog'lab bergani yo'q... Tojiddin Razzoq haq ekan. Chorsha baxshini ham bog'lab qo'ygani yo'q ekan. "Hayyo-huyt" deb dunyodan o'tdi-ketdi. Qilinajak suhbatlar ham, yozilajak risola ham qoldi-ketdi. O'sha borganimizda Chorsha baxshi chehrasi ochilib, do'mbira chaldi, terma aytidi:

Loydan xamir yasab, kulcha yopganim, Sedana deb shag'al-qumdan sepganim, O'tgan yo'lovchiga toshikesak otganim, Ertadan kechgacha ot bo'p chopganim...

Bu satrlar uning "Bolalik chog'larimda" deb nomlangan termasidan edi. Do'mbira ohangiga butun vujudi chayqalib baxshi davom etardi: Xudo bermagan baxshining kuylagan termasi, yo she'ri shoirlar qolipiga to'g'ri kelmaydi. Bu talablar Chorsha baxshida mujasam edi.

Maysa uzra ag'nab yotganim, Qo'y-qo'zini maqtab qo'shiq aytganim, Tayog'imni do'mbira qib chertganim, Moldi cho'lga tashlab, shahar ketganim.

Ko'z oldimdan sira uzoq

ketmaydi. Baxshidan ne qoldi?

BAXSHINING BOLALIGI

Sheroboddagi O'lanbuloqdan suv ichib Oqto'qayning daryosini kechib, Bo'stonsoyning qirralaridan qo'y-echki boqib, bamisoli shamoldek uchib o'tdi. Baxshiga nima qoldi bu aziz umridan? Bir hovuch bolalik xotiralari va Surxon dashtlaridek keng, poyonsiz xayol mulki qoldi. Baxshi umr bo'yi ana shu xayol va xotira mulki bilan yashadi, shularning yodi, ko'magi bilan o'nlab dostonlar, yuzlab termalar bitdi.

Chorsha baxshi o'ta yodkash baxshi edi. O'tgan-ketgan ko'p gaplardan xabari bor edi.

Chorsha baxshi xokisor odam edi. Davralarda qatnashib, gurunlarda o'tirib kamtar bo'ldi. O'zini bir xil, bir xil baxshilarga o'xshatib, oldinga ha deb uraverardi. Odamlardan ko'p izzat ham talab qilmadi.

"Meni izzat qilishmadi, ra'yimga qarashmadi", deb xafa ham bo'lmadi. Duch kelgan yerdan aytib ham yurmadi. Balki... odamzotni bilib bo'ladimi — ranjigan bo'lsa ham hech qachon bildirmagandir. Lekin nima bo'lganda ham xokisorlik, kamtarlik Chorsha baxshiga xos va unga bahosiz ziyinat ham edi. U el baxshisi qanday bo'lishi lozim ekanligini yosh baxshilarga nasihat sifatida aytib ketdi.

Agar Siz Chorsha baxshining gurunlari xumor qilsa, uning nashr qilingan "Toshbosar", "Xursuna", "Yodgor" deb nomlangan dostonlarini, minglab hali e'lon qilmagan "Alpomish" (Surxondaryo varianti, 800 sahifali), Shayx Shohi Mardon, "Qir Yobbi", "Mamatrayim baxshi" "Ollanazar Olchinbek" kabi qator dostonlari, minglab termalarini qo'lyozma holida o'qib ko'ring, fikr qiling.

IKKI DARYO — BIRI BAXSHI, BIRI SHOIR

Surxondaryoning markazi Termiz shahrida istiqomat qiladigan Shafoat Rahmatullo Termiziyani adabiyot ilxosmandlari zo'r shoir deb ta'rifi aytadilar. Shafoat shoir kim edi? Ana shu maqtoqli shoir Chorsha baxshining tug'ishgan ukasi edi. Bir kuni Shafoat aka guruh orasida shunday deb yubordi:

"O-o-o, Chorsha baxshi zo'r shoir! Men uning dostonlarini o'qib salohiyatiga, fikr va xayol kengligiga, tasavvurining bepoyonligiga qoyil qolaman. Shuncha ko'p voqea-hodisalarni, nomlarni, turkiy xalqlargagina xos bo'lgan qadimiy udumlarni, urflarni

qayerdan bilganiga va bilib, eshitib, ham eslab qolganiga hayronlar qolaman..."

Surxonning zo'r shoiri deb tan olingan Shafoat Rahmatullo bu gaplarni Chorsha baxshi ukasi bo'lganligi uchun yoki tarafdashlik yo'sinida aytmadi, balki xolis turib, chin bahosini aytgan edi. Biz bunga astoydil ishonidik. Chunki bilimziki, Shafoat akada tarafdashlik, og'aynibozchilik kayfiyatining asli o'zi yo'q edi.

Bilganlar bor, bilmaganlar bor, Surxon elidan ikki daryo oqib o'tdi. Bu daryoning nomini, ismi-sharifini Chorshanbi baxshi va Shafoat Rahmatullo Termiziy deyildilar.

Sherobod tumanidagi Kattatut qishlog'ida tavallud topgan Shafoat Rahmatullo Termiziyani balkim O'lanbuloqning o'lanlari, Chilvir cho'lining taqirlari, Oyna ko'lining zirol suvlari, yosh shoirning onasi beshik boshida aytgan allalari jismiga singib shoir qilgandir. Qadim Sherobod baxshilar yurtining toza va musaffo havosi shoir qalbiga nodir va tiniq ohanglar olib kirganligi rostidir.

Rahmatullo bobo suruv qo'ylar ortidan yurib, do'mbira chertib, o'g'illarim baxshi shoir bo'lsin deb yig'lab Xudodan tilagan bo'lsa, Oyimxol momo urchuq yigirib, o'g'illarim shon-shuhrat emas, baxti butun, yuzi yorug', mo'min qobil farzandlar bo'lishini Olohdan o'tinib so'raganlari ijobat bo'lgandir.

Rahmatullo bobo va Oyimxol momolar to'g'ri turib, to'g'ri tilagining boisi bo'lsa kerak, bir uydan, bir beshikdan ikki farzand el-u ulus farzandlari bo'lib yetishdi. Biri qo'liga do'mbira ushlab xalq ko'nglini xushnud etdi. Biri esa shoir, ham tarbiyachilim-professorlikni gardaniga oldi. Ha, bu ulkan va zalvarli yukni har kim ham olavermaydi.

Shoir onasi haqida shunday deydi: "Men o'zimdagi jinday sifatlarning ko'pi onamdan o'tgan bo'lsa kerak deb o'ylayman". Shoirning oilasida baxshichilikka qiziqish juda zo'r bo'lgan. Katta akasi Boboqul ham o'smirlik yillarida o'zicha baxshichilik qilib, qo'shiqlar aytib yurgan bo'lsa, Yaratgan Chorshanbiga doston-u termalarni ayt deb qo'liga do'mbira bergan bo'lsa, Shafoatga she'r-u g'azallar bit deya qalam tutqazgan. Bu oila a'zolariga faqirlik va kamtarlik bahosiz ziyinat bo'lib, ular shu ziynatlar olamida yashaydilar. Bular

doston-u termalardan, she'r-u g'azallardan, so'zdan badavlat bo'lib, voyaga yetdilar, el ichida ma'lum va mashhur bo'ldilar.

Har ikki aka-uka dorilfununlarda o'qib, katta shaharlarda kutubxonalar titib, shoir bo'lmadilar. Ularning necha ming yillar naridan kelayotgan yorug'-hasrat, mungli navolar shoir qildi. Ularni shu qutlug' Vatanning chigal kechmishi, suronlar, bahodirona o'tmishi, botirlarning yiroq asrlar qo'ridan kelayotgan elas-elas hayqiriqlari shoir qildi. Bisotlaridagi eng katta mulk — she'riyat. Boshqa hech narsa. Achchiq ko'z yoshlarini ham, bir hovuch sevinchlarini ham she'r-u dostoniga o'rab yashadilar.

Sh. Rahmatullayev 1960-yili Toshkent davlat Konservatoriyasining operaxor bo'limiga o'qishga kirdi. "Shoir bo'lish xayolimda ham yo'q edi. Musiqqa, artistlar hayoti, teatr va yoshlik havoyiliklari ila mast edik", deydi shoir.

Ular o'qiydigan operaxor kursi Alisher Navoiy nomidagi akademik teatr spektakllarida qatnashishga jalb qilindi.

U san'atning ulkan arboblari M. Ashrafiy, S. Yudakov, Ginzburg, Meli Musayevlar ishlaydigan ehromiga qadam qo'ydi. Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Sattor Yarashov kabi ulug' artistlar bilan yonma-yon "Maysarining ishi", "Dilorom" kabi operatorlarda rol bajardi. Konservatoriyani 1965-yilda bitirib, Samarqand opera va balet teatriga ishga keldi. Bu yerda 1966-yilning oxirigacha ishladi va o'sha yilning kuzida armiya safiga chaqirildi va u Turkiston harbiy okrugi "Qo'shiq va raqs ansambli"da xizmat qildi.

Harbiy xizmatda yurt, vatan, oila sog'inchi shoir qo'liga yana qalam tutqazdi. Harbiy turmushning qiyinchiliklari, go'zal teatr turmushini sog'inish, do'stlar davrasini qo'msash tuyg'ulari mashqlar tizmasidan o'rin oldi. U harbiy xizmatda bir daftarni qoralab qaytdi. Agar lo'nda qilib aytisak, Shafoatni ona yurt sog'inchi shoir qildi.

Shoir o'zining el nazariga tushib, taniqli shoir bo'lib ketish voqeasini eslaydi: "Bir kuni yozgan, o'zimga ma'qul she'rlarimni mashinkalab, redaksiyaga kirib bordim. Shoir Tesha Saydaliyevning yonlarida burgutsiymo bir zot o'tirgan ekanlar, "Mengziyo, bu yigit Shafoat Rahmatullayev bo'ladi, yaxshi she'rlar zo'ryapti", deb tanishtirdi

Tesha aka. Shu-shu men taniqli yozuvchi va jurnalist Mengziyo Safarov bilan aka-uka, do'st bo'lib ketdim. U kishiga mening she'rlarim juda ma'qul bo'libdi" (Kamina ham o'sha yillari aynan shu redaksiya ostonasini hatlab, shu ustozlarga she'rlarini olib borib yurardi).

"1968-yilda Mengziyo Safarov shoirga sobiq "Lenin bayrog'i" (hozirgi "Surxon tongi") gazetasi sahifasida "Oq yo'l, Shafoat! deb fotiha berdi". Ushbu sahifadan "Shoirning boyligi", "Amuga boqib", "Olam ham", "Ba'zan", "Muqaddas", "Jonginam", "Bilaman", "Nechuk", "Bir topasi qimmat", "Yoshlik" nomli she'rlari o'rin olgan edi.

Shafoat Rahmatullo Termiziy o'z xalqi va ona yurti haqida, o'z vatanining tarixiy yo'llari haqida juda ko'p asarlar yaratdi. "O'zbekim", "Onajonim", "O'zbekiston", "Ona yurt", "Tazarru" kabi she'rlarida o'zining vatani bo'lgan O'zbekiston va o'zbek xalqi haqida to'lib-toshib kuylaydi.

Nihoyat, 1981-yilda "G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida shoirning "Janub shamoli" nomli ilk she'riy to'plami chop etildi. Bu she'riy to'plam o'zbek she'riyatida voqea sifatida qayd etildi.

1968-yili shoir yozuvchilar uyushmasiga a'zolikka qabul qilindi va Shafoatning ijodi keng omma e'tiboriga tushdi.

"Shafoat — tulporlari chopganda tuyog'idan uchqun sayraydigan, dupurlari tog' xayolini qochiradigan, kishnashlari eshiklarni ochiradigan", "Toshdevorlar", "Panjarali darvozalar", "mehmonga quchoq ochadigan", "Nilufar gumbazlari osmon ichra bir osmon, buloq suvlari qizlarga ko'zgu" bo'lgan go'zal diyor farzandi" deb yozadi O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi Mahkam Mahmudov.

Muxlislaridan biri esa: "Surxon farzandi Shafoat ona diyoringing go'zalliklarini maftunlik bilan, iftixor bilan kuylaydi. Uning rangini tashbehlariga, nozik hazil-mutoyibaga, lirizmga boy she'rlarida yigitlarning tantiligi sho'xligi-yu, qizlarning nozli va mayin, olovli nigohlari yosh qalblarning otashin ehtirosi, hayajon-entikishlari, musaffo orzu-yoxollari ravshan manzaralarida chiziladi", deya ta'rif bergan edi.

Umrining oxirgi yillari bo'lsa kerak, uyiga borganimda

ijod mahsullarini kitob holiga keltirib tikayotgan ekan. Men shoiridan so'radim:

— Nashriyotgami? — Yo'q, imkonim bo'lmadi nashriyotdan chop etishga, shu qo'lyozma holida topshiraman, — dedilar. Topshirdimi, yo'qmi? Bundan xabarim yo'q. Bu boylikning taqdiri qachondir yarqirib, mana men deb o'z muxlislari qo'lga tegadi-yu...

She'riyat dunyosi rang-barang, serfayz va murakkabdird. Quvnoq, qaynoq va jo'shqin bu olamga kirgan insonlar qalbi yanada yasharadi, dili yayraydi. Sh. Rahmatullayevning she'riy to'plamlari "Janub shamoli" (1981-yil), Umid ostonasi" (1988-yil), "Gulob" (1991-yil) nomlari bilan e'lon qilindi. Bu to'plamlaridan insoniylik, mangu olam va unda asrlar osha yashab, kurashib kelayotgan insonlar haqidagi mushohadalar o'rin olgan.

Sh. Rahmatullayev falsafiy mushohadali, o'tkir idrokli, chuqur xayolli, o'ychan his-tuyg'uli shoiridir. U ko'p o'qiydigan, xayol qanotlari bilan jahonni bir zumda kezib chiqadigan, lo'nda fikrlaydigan, dono ijodkoridir. Sh. Rahmatullayevning bir to'rtligida akasi Chorsha baxshi termalarida uchraganidek insonning tashqi qiyofasiga baho bermaslikni she'riga singdiradi:

Sirtimga qarab siz chiqarmang hukm, Bilmasdan dilimda nimalar hokim. Davrada vaqt degan bir donishmand bor, U hali aytadi siz kim-u, men kim.

Shafoat shoir hamda akasi Chorsha baxshi to'plagan va avlodlariga qoldirgan meroslari she'riyat bog'i va imoratiga bezak bo'lib, kamalakdek nur taratib turibdi.

Besh kunlik dunyoning besh kunlik mehmonlaridan ikki ijodkor oramizda yo'q, ammo ma'naviy mulki badiiy adabiyotning boyligiga ulkan hissa bo'lib qo'shilmoqda. To'liq o'tib, qirg'oqlardan qirg'oqlarga urilib, hayqirib, to'lg'onib, mavjlanib, Surxon vohasidan ikki daryo oqib o'tdi. Ularning biri Chorsha baxshi Rahmatullayev, ikkinchisi esa Shafoat Rahmatullo Termiziydir.

Ro'ziqul MUSTAFOQULOV, filologiya fanlari nomzodi

SURXON TONGI
va
ЗАРЯ СУРХАНА
gazetalari tahririyati

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi va viloyat hokimligi

TAHRIR HAY'ATI
Jo'rabek TO'RAYEV (hay'at raisi)
Abduraim CHORIYEV, Murodbek DAVLATOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV

Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR
Salohiddin NORQOBILOV
MAS'UL MUHARRIR
Sayyora ALLAYEVA
NAVBAATCHI MUHARRIR
Xurshid KARSHIYEV
SAHIFALOVCHI DIZAYNER
Dildora VOHIDOVA

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

TELEFONLAR:
76 224-23-85,
76 224-23-80,
76 224-23-87

Qog'oz bichimi A-2, 2 bosma taboq
Nashr indeksi: 6 500
Bosishga topshirildi — 09:00
Bosildi — 11:00
Adadi 6 700 nusxa.
Buyurtma Γ-

MANZILIMIZ:
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy
BOSMAXONA MANZILI:
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy

Gazeta "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi.